

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Mikroqarz - "FIDOKOR"
Qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 21 yoshga to'lgan, Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi va boshqa harbiy xizmat tizimida kamida 1 yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy shaxs.
Mikroqarz valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Mikroqarz miqdori	100.0 mln.so'mgacha
Mikroqarz maqsadi	Maqsadsiz
Mikroqarz muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oy muddatgacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining «Asia Alliance Bank» ATBda ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Foiz stavkasi	12 oy muddatgacha – 22,0 %; 36 oy muddatgacha – 26,9 %; 60 oy muddatgacha – 27,9 %;
Mikroqarz ta'minoti	<ul style="list-style-type: none">Mazkur kredit 60 oy muddatgacha taqdim etilganda, mikroqarzning 125 foizidan kam bo'lmagan miqdorda uchinchi shaxs kafilligi yoki likvidli mol-mulk garovi qabul qilinadi;Mikroqarz ta'minotsiz shartlarda 36 oy muddatga qadar ajratiladi. Bunda: Qarz oluvchini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha mikroqarzning 125 foizi miqdorida sug'urta polisi rasmiylashtiriladi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Qarz oluvchi, Birgalikda qarz oluvchi (mavjud hollarda) va Kafilning (mavjud hollarda) shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; D) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda); E) Bankning mas'ul xodimlari tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto sur'atlari bilan (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda). Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi/Kafilning daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz

	<p>oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 12 (o'n ikki) oy uchun hisoblandi.</p>
<p>Mikroqarzni qaytarish tartibi</p>	<p>Annuitet yoki differensial to'lov usulida.</p>
<p>Qo'shimcha shartlar</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi/Kafilning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim; • Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim; • Mazkur mikroqarz o'zini o'zi band qilgan shaxslarga ajratilmaydi; • Mikroqarz kafillik shartlari asosida taqdim etilganda, skoringdan o'tish bali 490 ball etib belgilansin; • Mikroqarz ta'minotsiz shartlarda asosida taqdim etilganda, skoringdan o'tish bali 462 ball etib belgilansin; • Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda, <ul style="list-style-type: none"> 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi; 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi; 90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi. <p>* Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Kreditlarni ma'qullash boshqarmasi Jismoniy shaxslar anderraytingi bo'limiga beriladi.</p>